

Bolalar Muqaddas Kitobi Tasvirlab beradi



Rut: Sevgi hikoyasi

...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan ilustratsiya qilingan: Janie Forest

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan: Lyn Doerksen

60 ta hikoyadan 16-si

www.M1914.org


Bible for Children, PO Box 3, Winnipeg, MB R3C 2G1 Canada

Lisenzia: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusxa ko'chirishingiz mumkin. Lekin u sotilmaydi.

O'zbekcha

Uzbek

Agar barcha o'tgan
ajdodlaringizni
ko'rganingizda, ular qanday
odam bo'lgani juda qiziq
bo'lsa kerak. Isoning
ajdodlaridan biri Mo'ablik,
butlarga sig'inadigan Rut
ismli ayol edi.



1

Rutning hikoyasi Shamshondan
keyingi vaqtdan boshlanadi.
O'sha vaqtlar odamlar Xudoga itoat
etmay qo'yishgandi. Yerdan ochlik
boshlangandi. Meva va o'simliklar
hosil bermay qo'ygandi. Odamlar
esa ochlikdan azob
chekishar edi.



2

Elimalek ismli odam oilasi bilan oziq-ovqat izlab, Baytlahmni tark etdi. U odamlari butlarga sig'inadigan Mo'ab yurtida joylashdi.



3


Mo'ab yurtida ham Elimalekka oson bo'lmadi.



Bir oz vaqt o'tib, o'zi ham ikki o'g'li ham vafot etishdi.

4

Uning xotini Naima ikki kelini Rut va Orpa bilan yolg'iz qolib ketdi.



Ikki kelin ham Mo'ablik edi.

5

Beva qolgan Naima uning yurtiga Xudo non berganini eshitdi. U qaytib ketishga qaror qildi. U ikki keliniga o'z yurtlarida qolib, boshqa turmush qurish kerakliklarini taklif qildi.



6

Orpa ota-onasining uyiga qaytib ketdi. Lekin qaytishga Rut rozi bo'lmadi. U qaynonasi Naima bilan qolishini xohladi.



7

Naimaning oldingi dugonalari u Baytlahmga qaytib kelganidan juda xursand bo'lishdi.



8




Ammo Naima endi uni Naima, deb emas, balki Musibat, deb atashlarini istadi. Chunki uning boshiga ko'p qayg'u-alam tushgandi. Rutdan boshqa Naimani hech kimi yo'q edi.

9




Rut oldin butlarga sig'inari edi, ammo endi u Haqiqiy Tirik Xudoni bilib oldi. U non topish va qaynonasini boqish uchun ko'p ishlardi. Har kuni erta sahardan to kechgacha Rut dalada o'rimdan qolgan bug'doyni yig'ardi.

10




Dala ho'jayini Bo'az Rut haqida ko'p yaxshi gaplarni eshitdi. Bo'az ishchilariga dalada ko'proq bug'doy qoldirishlarini buyurdi. Bora-bora u Rutni yaxshi ko'rib qolayotgan edi.

11




Bo'az haqida Rut qaynonasi Naimaga aytib berdi.

12



Naima buning uchun Xudoga hamdu sano aytdi. Axir Bo'az ularning qarindoshi edi.

13



Vaqt o'tib, Bo'az Rutga uylanmoqchi bo'ldi. Ammo Naima va Rutga Bo'zadan ham yaqin qarindosh bor edi.

14



U Elimalekdan qolgan yerni olishni istardiyu, lekin Rutga uylanishni istamasdi. Qonun esa bu ikkisini ajratmas edi.



15

U vaqtlarda odamlar kelishuvdan keyin qo'l siqishmasdi. Ulardan biri olomom oldida etigini yechib, ikkinchisiga berishi kerak edi. Shunday qilib, Bo'az Rutga uylandi.




16



Bo'az va Rut o'g'il ko'rishdi. Uning ismini Obid qo'yishdi. Obid payg'ambar va shoh Dovudning katta bobolaridan biri bo'ldi.

17

Lekin bundan ham a'lorog'i Obid Iso Masihni o'tgan ajdodlaridan biri edi. Iso Dovud naslidan kelib chiqdi. U Shoshlar Shohi, odamzotning Najotkori bo'ldi.



18

Rut: Sevgi hikoyasi

Hikoya Hudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

Rut

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."
Zabur 119:130

Hudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim.

Hudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Endi Hudo bizni gunohlarimizni Iso tufayli kechira oladi.

Agar siz gunohlaringizdan ozod bo'lishni istasangiz, Hudoga shunday deb ayting: "Mehribon Hudo, Men Iso mening gunohlarim uchun o'lganiga ishonaman, iltimos mening hayotimga kel, va mening gunohlarimni kechir, men yangi hayot bilan yashashim uchun va Sen bilan abadiy bo'lishim uchun menga yordam bergin. Men Sening frazanding bo'lishimga yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har kuni suhbatlashing!